



NEMIS TARIKSHUNOSI YOHANN KRISTOF GATTERER
TADQIQOTLARIDA AMIR TEMUR HAYOTI VA DAVLATCHILIK
FAOLIYATINING TALQINI

Nizomitdinov Doniyorjon Jaloldin o'g'li

Farg'ona davlat universiteti tadqiqotchisi

doniornizomitdinov@gmail.com

ORCID iD: <https://orcid.org/0009-0006-5181-1673>

Tel: +998994994966

<https://doi.org/10.5281/zenodo.20502558>

Annotatsiya: Ushbu tadqiqotda XVIII asrda nemis tarixshunosligida o'zining yangicha yondashuvlari bilan tanilgan Yohan Kristof Gatterer hamda uning imiy faoliyati haqida so'z yuritiladi. Shuningdeg Gattererning Amir Temurning hayoti va uning davlatchilik faoliyatini tadqiqi etishi, uning Sohibqiron haqidagi qarashlari tahlil qilib o'rganiladi.

Аннотация: В данной диссертации рассматривается Иоганн Кристоф Гаттерер, который в немецкой историографии XVIII века известен своими новаторскими подходами, а также его научная деятельность. Кроме того, анализируется исследование Гаттерера, посвящённое жизни и государственно-строительной деятельности Амира Тимура, а также рассматриваются его взгляды и интерпретации образа Сахибкيرانа.

Abstract: This thesis discusses Johann Christoph Gatterer, who is recognized in eighteenth-century German historiography for his innovative methodological approaches, as well as his scholarly activity. In addition, the study analyzes Gatterer's research on the life and state-building activities of Amir Timur and examines his interpretations and views on the historical figure of Sahibqiran

Kalit so'zlar: "ma'rifatparvarlik g'oyalari", XVIII asr nemis tarixshunosligi, Gottingen tarix instituti, Yohan Kristof Gatterer, Linnaeismus graphicus, Gatterer asarlari, Timur va Tamerlan ismlari tushunchasi.

Ключевые слова: идеи Просвещения, немецкая историография XVIII века, Гёттингенский исторический институт, Иоганн Кристоф Гаттерер, Linnaeismus graphicus, труды Гаттерера, концепция имён «Тимур» и «Тамерлан».

Keywords: Enlightenment ideas, eighteenth-century German historiography, Göttingen Historical Institute, Johann Christoph Gatterer, Linnaeismus graphicus, Gatterer's works, the conceptual understanding of the names "Timur" and "Tamerlane".

Nemis tarixshunoslik maktabi jahon tarixshunoslik maktablari orasida alohida ajralib turadi. Nemis tarixshunoslik maktablarida ishlab chiqilgan






metodlar jahon tarixshunosligida andoza bo'lgan desak adashmagan bo'lamiz. XVIII asrda Germaniyada ma'rifatparvarlik g'oyalari hukm surdi. Nemis tarixshunosligi ham o'z navbatida ma'rifatparvarlik (aufklärung) g'oyalari ta'siri ostida rivojlandi. Bu davrda tarix faqat voqealarni sanab o'tuvchi hikoya emas, balki manbalarni tekshirish, tanqidiy tahlil va tarixiy taraqqiyotni tushuntirishga qaratilgan ilmiy yo'nalishga aylana boshladi. Nemis tarixchilari tarixni diniy rivoyatlar asosida emas, balki dalillar, manbalar, hujjatlar va ratsional tahlil orqali o'rganishga intildilar. Bu jarayonlar Germaniyada tarix fanidagi ilk ilmiy tadqiqot institutiga asos solgan nemis tarixshunosi Yohann Kristof Gatterer (1727-1799) nomi bilan bog'liq. Gatterer 1759-yilda Gottingenda tarix professori bo'ladi. U 1764-yilda Gottingenda "Tarixiy akademiya" tashkil etadi, 1766-yilda esa o'rta asr tarixiy manbalarini nashr qilish uchun Tarixiy instituti"ni tashkil etadi. Gatterer tarixni "to'liq qamrovda" ("im ganzen Umfange") ifoda etish kerakligini anglardi[1].

Gatterer statistika bo'yicha mutaxassislik konsepsiyasini, xronologiya, numizmatika, genealogiya, geografiya va umumiy tarix bo'yicha darsliklarni yaratdi. Uning geraldika, genealogiya, geografiya va umumiy tarix haqidagi qo'llanmalari uzoq vaqt standart asarlar sifatida xizmat qildi va XIX asrda ham ta'lim jarayonida qo'llanildi. Gattererga yordamchi tarix fanlarini ilmiylashtirish yo'lini boshlab bergan olim sifatida baho beriladi. Gatterer tarixni o'rganishda yangi usullarini yaratadi. U manbalarni o'rganishni yangi metodlarini ishlab chiqar ekan barcha yozuvlarning rivojlanishini botanika metodlari asosida tizimlashtirishga itiladi va buning uchun "grafik linnechilik" ("Linnaeismus graphicus")¹ deb ataluvchi usulni yaratadi. Gatterer bu usul yordamida hujjatlar yoshini aniqlashni o'z oldiga maqsad qilib qo'yadi[2].

Gatterer tashkil etgan institut akademiya va universitet instituti o'rtasidagi gibrid shakl bo'lib, tarix ta'limi bilan tarixiy tadqiqotlarni birlashtirgan va keyinchalik ilmiy seminarlarning dastlabki shakliga aylangan edi. Institutdan ikkita zamonaviy ilmiy jurnal – *Allgemeine historische Bibliothek* ("Umumiy tarixiy kutubxona") va *Historisches Journal* ("Tarixiy jurnal") paydo bo'ldi. Ushbu institut tarix fanidagi ilk ilmiy tadqiqot instituti hisoblangan[3].

Martin Gierl Gattererning asosiy xizmati o'z davrining ilmiy muammolari va natijalarini tizimli ravishda tarixshunoslikka integratsiya qilishdan iborat bo'lganligini yozadi[4].

¹ Linnaeismus graphicus (grafik linnechilik) - tarixiy yoki ijtimoiy jarayonlarni ketma-ket rivojlanish tarzida tahlil qilish usuli.





Gatterer manbalarni ishonchliligini aniqlashni, uning tahlil etish yangi yo'llarini ishlab chiqadi. U asarni og'zaki va yozma ma'lumotlarning o'zaro bog'liqligi hamda ularning o'tmishning moddiy dalillari bilan aloqasi asosida ishlovchi axborot tizimiga tayanadi. Bu tizimning o'zi ham tarixiy dalillarni qayta ishlab chiqarishda foydalanilgan turli vositalar ta'sirida shakllanganligini ko'rsatib beradi.

Gatterer sharqshunosli ilmini ham chuqur egallaydi. U "Universal tarix" asarlarini yozadi hamda u asarlarda Sharq tarixini, shu jumladan, Amir Temur shaxsi va uning davlatchilik faoliyatiga alohida to'xtalib o'tadi. U Amir Temur hayoti borasida olib borgan tadqiqotlarida asosan manbalarga, jumladan, Sharafiddin Ali Yazdiy, Ibn Arabshoh, fransuz mualliflari hamda orientalistik tarjimalarga tayanadi. XVIII asr nemis tarixiy matnlarida Amir Temur "Tamerlan" yoki "Timur Lenk" shaklida tilga olinadi. Yohann Kristof Gatterer asarlarida "Timur" so'zi "Tamerlan" so'zi bilan parallel ravishda ishlatilgan, ammo Timur iborasi birinchi qo'llanilgan. Uning tadqiqotlarida Amir Temurni Timur nomi ostida tilga olinishi XVIII asr nemis tarixshunosligida sharq hukumdorlarining nomlanishidagi terminologik autentlikka intilish tendensiyasining bir ko'rinishi bo'lib, keying tarixiy izlanishlarda "Timur" nominatsiyasining ilmiy muomalaga kirib borishiga ta'sir ko'rsatgan. Gattererning Timur iborasini asosiy nominatsiy Tamerlanni esa tanilgan Yevropa variant sifatida ishlatgan degan gipoteza vujudga keladi. U tarixiy nomenklaturada sharq manbalariga yaqinroq "Timur" shaklini qo'llagan tarixchilardan biri sifatida keying nemis tarixshunosligidagi terminologik siljishga hissa qo'shgan. XVIII asrda nemis ilmiy tadqiqot markazlari orasida Gottingen tarixshunoslik maktabi Gatterer boshchiligida olib brogan tadqiqotlari natijasida Tamerlan bilan bir qatorda Timur shaklining ham ilmiy muomalada qo'llanishiga sharoit yaratdilar. Gottingen tarixshunoslik maktabi nemis tarixshunosligida sharq hukmdorlarini avvalgidek Yevropacha nom bilan emas balki, asl nomiga yaqinroq atay boshladilari, shu jumladan, Amir Temurni ham nomlash paradigmasida o'zgarish yasadi.

Yohann Kristof Gatterer 1764-yilda "Universal tarix qo'llanmasi" asarini yozadi. Ushbu asarda Amerika, Osiyo, Afrika hamda Yevropada tarix haqida ma'lumot beruvchi manbalarni tasniflashga harakat qilgan. Shuningdek, Amir Temur tarixi haqida ham ma'lumot beruvchi manbalarni asarga kiritgan[]. U birinchi bo'lib, Ibn Arabshohning "Timur hayoti va faoliyatida taqdirning mo'jizalari haqida ma'lumot" nomli asarini keltirib, unda Ibn Arabshoh Amir Temurni unchlik ijobiy tasvirlamaganligini ta'kidlaydi[5]. Shuningdek, asarni fransuz hamda lotin tillariga tarjima qilinganligi haqida ma'lumotlar berib o'tadi.





Gatterer shundan so'ng Sharafiddin Ali Yazdiyning "Zafarnoma" asari haqida ma'lumot beradi. Uning ta'kidlashicha, Amir Temurning harakatlari va yurushlarini juda aniq, batafsil va chiroyli uslubda yozgan. Ushbu asarning fransuz hamda turk tillariga tarjima qilinishi haqida ham so'z yuritadi.

Gatterer shuningdek nemis tarixchisi Yohann Haynrix Boklarning Amir Temur haqida "Tamerlanes" nomli kitobi bor ekanligi haqida ma'lumot berib o'tadi. Shuningdek, Sohibqiron haqida fransuz mualliflari haqida ham ma'lumotlarni keltirib o'tadi. Bundan shuni anglash mumkinki, Gattererning Amir Temur haqidagi bilimlari asosan fransuz hamda lotin tilidagi asarlar orqali shakllangan.

Gatterer 1773-yilda "Umumiy tarix" asarini qaytadan tahrir etib, nashr ettiradi. Bu asarda Amir Temurning hokimiyatga kelishi, yurushlari hamd davlatchilik boshqaruvi haqida ma'lumotlarni keltirib o'tadi. Muallif Amir Temurni kelib chiqishi borasida uni Chingizxonning yaqin qarindoshi bo'lganligini haqida noto'g'ri ma'lumotlarni qayd etadi. U Amir Temurni dunyoni vayron qiluvchi bosqinchi sifatida, ba'zan esa musulmon g'ayratli adolatli hukmdor bo'lganligini yozadi[6]. Amir Temurning Amir Husayn bilan birga ittifoq tuzganligi, mo'g'ullarga qarshi birgalikda kurashganliklari va nihoyat Ilyosxo'ja quvib charganliklari hamdada Qobulshoxni xon deb ko'tarishlari haqida ma'lumotlarni yozadi. Amir Temurni 1369-yilda hukmdor bo'lganligini hamda shundan so'ng "Sohibqiron" nomini olganligini ta'kidlaydi. Shu o'rinda, muallif bir biriga qarama qarshi zid ma'lumotlar berganligini ko'rishimiz mumkin. Gatterer Amir Temur hokimiyatni egallagandan so'ng Chingizxon avlodlaridan taxtga hukmdorlar o'tkazganligini, bu jarayon esa, Karl Martell va Karlarning merovinglar sulolasidan qo'g'irchiq qirollar o'tkzib turganligini bu holat "teatr qirollari" deb nomlanishini qayd etadi. Gattere Sohibqironni har bir yirik jangini yozadi hamda Xitoyga yurush qilish oldidan Ispaniya elchisini kutib olganligini yozadi.

Gatterer 1792-yilda o'zining yirik asarlaridan biri "Umumiy jahon tarixi tavsifi" nomli asarini yozadi. Asarda Amir Temur borasida o'zining qarashlarini bayon etadi. U Sohibqironni Yaqin Sharqqa qilgan yurushlari, Kichik Osiyoga qilgan yurushi, Volga bo'ylaridagi yurushlari haqida to'xtaladi va Konstantinopol bilan ittifoq shartnomalari tuzganligi borasidagi o'z qarashlarini yozadi. Amir Temurning ulkan davlati parchalanib ketgan bo'lsa ham u tuzgan davlat Bobur boshchiligida Hindistonda uzoq yillardan buyon, ya'ni XVIII asrda ham hukmronlik qilayotganligini qayd etadi[7]. Bu XVIII asr nemis tarixshunosligida





Temuriylar saltanati uzluksiz tarixiy an'ana sifatida tasavvur qilinganligini anglatadi.

Xulosa o'rnida shuni aytish joizku, Yohann Kristof Gatterer tarix sohasida o'zining tadqiqotlari orqali yangiliklar kitdi. Uning tadqiqotlari natijasida ko'plam ilmiy xulosalar tarixshunoslikka kiritildi. U tarixni umumiy tarzda yoritilishini xohlar edi. Gatterer ko'plab tarixiy shaxslar qatori Amir Temur shaxsiga va uning faoliyatiga o'zining tadqiqot asarlarida alohida to'xtalib o'tdi. U Sohibqironga nisbatan ikki xil pozitsiyada yondoshganligini ko'ramiz. Bir tomondan, Amir Temurni ulkan siyosiy va harbiy arbob, ulkan davlat asoschisi bo'lgan hukmdor sifatida ko'rsatsa, ikkinchi tomondan, vayron qiluvchi, zabt etuvchi hukmdor sifatida tavsiflaydi

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Martin Gierl. Fundamenta Historika. Geschichte als Präzisierte Wissenschaft. Johann Christoph Gatterer und die Historiographie des. Jahrhundertts im ganzen Umfang. – Stuttgart-Bad Cannstatt. 2012. – S. 1.
2. www.bwg.wiley-vch.de. André de Melo Araújo. Evidentiary Authority as a System: Johann Christoph Gatterer and the Collective Making of Historical Knowledge in the Eighteenth Century. doi.org/10.1002/bewi.2145. – S. 204
3. <https://www.deutsche-biographie.de/sfz19997.html#ndbcontent>
4. Martin Gierl. Fundamenta Historika. Geschichte als Präzisierte Wissenschaft. Johann Christoph Gatterer und die Historiographie des. Jahrhundertts im ganzen Umfang. – Stuttgart-Bad Cannstatt. 2012. – S. 2.
5. Johann Christoph Gatterers. Handbuch der Universalhistorie. nach ihrem gesamten Umfange bis auf unsere Zeiten fortgesetzt. des zweyten Theils erster Band. Nebst einer vorläufigen Einleitung, worin das Verzeichnis der Geschichtschreiber bis auf die neuern Zeiten fortgeführt worden. Göttingen im Verlag der Wittwe Vandenhoeck, 1764. 432 s.
6. Johann Christoph Gatterers Abriss der Universalhistorie in ihrem ganzen Umfange. Bei dieser zwoten Ausgabe völlig umgearbeitet und bis auf unsere Zeiten fortgesetzt. Göttingen, im Verlag der Wittwe Vandenhock. 1773. – S. 744 - 747.
7. Johann Christoph Gatterers. Versuch einer allgemeinen Weltgeschichte bis zur Entdeckung Amerikens. Göttingen, im Verlag Vandenhoeck und Ruprecht. 1792. – S. 835 – 838.

